

## HUDUD OBODLIGIGA HISSA QO'SHAMIZ



### HUDUD OBODLIGIGA HISSA QO'SHAMIZ

Respublikamiz Hukumati va bevosita davlatimiz rahbari e'tibori doirasida So'x tumanida keng ko'lamli obodonlashtirish, qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Albatta, bo'layotgan har bir o'zgarish va yangilanishlar So'x tumani fuqarolari manfaatini ko'zlab amalga oshirilayotgani bilan ham ahamiyatlidir. Zotan, poydevori qonun ustuvorligi va inson qadri yuksakligi bilan mustahkamlanayotgan yurtimizda fuqarolar manfaatini barcha narsadan ustundir.

Hududlarda olib borilayotgan obodonlashtirish ishlarida tuman sektorlari rahbarlari, hududlardagi hokim yordamchilari va ayniqsa, tuman obodonlashtirish boshqarmasi ishchi-xodimlarining obodlik yo'lida qilayotgan sa'y-harakatlarini e'tirof etish lozim.

Tuman prokurori, 2-sektor rahbari Sadirali Mirzokarimov boshchiligidagi tuman Istiqlol mahalla fuqarolar yig'ini hududida keng qamrovli obodonlashtirish ishlari olib borildi.

- So'x tumanini eng obod va ko'rkam go'shaga aylantirishdek ezgu niyat bilan mahallamiz hududida bir yoqadan bosh chiqarib, mehnat qildik. Albatta, barcha ishlarning boshida tumanimiz prokurori bizga xayrixohlik qildilar. Obodonlashtirish maqsadida maxsus texnikalarning safarbar etilishi prokurorimiz ko'magida amalga oshirildi, - deydi Istiqlol mahalla fuqarolar yig'ini hokim yordamchisi Xurshed Hisenov.

Bolalar sog'lomlashtirish oromgohi qurilayotgan hududda barcha kuch va vositalarni safarbar etgan holda obodonchilik hashari tashkil etildi. Chunki bolalarimiz uchun qurilayotgan oromgoh hududi har doim toza va ozoda bo'lishi lozim, chunki oromgoh ishga tushgandan so'ng bu hududga odamlarning oqimi ko'payishi tabiiy hol.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

2022-04-29 16:27:41